

ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASH TENDENSIYASI

Nasritdinov Azizxon Anvarovich*

O'zR IIV Akademiyasi o'qituvchisi

Nabijonov Farruhbek Ilhomjon o'g'li

Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi 3-o'quv kursi kursanti

Annotatsiya Maqolada odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha global va mahalliy darajadagi tendensiyalar tahlil qilinadi. Odam savdosi inson huquqlarining qo'pol buzilishi bo'lib, u jinoyatchilikning xavfli shakllaridan biridir. Annotatsiyada ushbu muammoning sabablari, shakllari, keng tarqalgan hududlari va unga qarshi kurashishda xalqaro tashkilotlar, davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining roli yoritilgan. Shuningdek, profilaktika choralarining samaradorligi va zamonaviy texnologiyalar yordamida aniqlash va oldini olish bo'yicha ilg'or tajribalar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: jinoyat sababi, jinoyatni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoit, oqibat, ob'ektiv sabab, sub'ektiv sabab, hodisalarning sababiy zanjiri, jinsiy ekspluatatsiya, raqamli texnologiyalar, globallashuv, taqdimnoma, Protokol, jinoyat muhokamasi.

TRENDS IN THE FIGHT AGAINST HUMAN TRAFFICKING

Annotation. This paper analyzes global and local trends in combating human trafficking. Human trafficking is a grave violation of human rights and one of the most dangerous forms of transnational crime. The annotation explores the causes, forms, and geographical spread of the issue, as well as the roles played by international organizations, state institutions, and civil society in counteracting it. It also examines the effectiveness of preventive measures and highlights best practices in identifying and preventing trafficking through modern technologies.

* O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o'qituvchisi. azizxonnasritdinov1989@gmail.com

Keywords: Cause of crime, conditions that allowed the commission of the crime, consequence, objective cause, subjective cause, causal chain of events, sexual exploitation, digital technologies, globalization, presentation, Protocol, criminal proceedings.

Jinoyat sababi va uni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf qilish bugungi kunda har bir jamiyat va davlat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Davlatimiz rahbari ham bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi idoralari ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda¹. Bu boradagi qilinayotgan ijobiy o'zgarishlarning natijasi jamiyatimiz hayoti va kundalik turmush-tarzida o'zining yaqqol ifodasini topib, xalqimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi kundankunga o'sib bormoqda. "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak"²

O'zbekiston Respublikasi jahon internet tarmog'i hamda bosha ilg'or texnologiyalardan foydalana boshlagan paytdan boshlab bizga ko'plab xatarlar, shu jumladan odam savdosi, qurol savdosi, kontrabanda kabi illatlar shakllana boshladi. Shulardan asosiy xavf solib turgan sohalardan biri bu odam savdosi ekanligi ma'lum.

Shuning uchun biz eng avvalo islohotlarni huquq tarmog'idan boshlashimiz lozimki, zero uning asosiy qismi bo'lmish qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar odam savdosiga qarshi kurashda bizga asosiy tayanch vazifasini bajarsin. Jumladan, davlatimizdagi odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar uchun jazolar yetarlicha ta'sir etishi va shu kabi jinoyatlarni oldini ola olishi bolishi uchun ularni ta'sirchanligini yetarliligini ta'minlash muhim o'rin tutadi. Hozirda nafaqat davlatda balki xalqaro

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son Farmoni. <http://www.lex.uz>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning Oliy Majlisga va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasi <https://yuz.uz/news/>

miqyosda ham ushbu sohaga qarshi kurash uchun umume'tirof etilgan hamda shu sohalarni o'z ichiga ololadigan protokollar hamda xaqaro kuchga ega bo'lgan qonun hujjatlari qo'llanilmoqda.

Jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabab va shart-sharoitlar ob'ektiv va muqarrar ravishda jinoyatning sodir etilishiga olib keladigan, huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar majmuidir³

Hech shubha yo'qki bu soha bir qatlamni o'zi bilan kurashib maqsadga erishib bo'lmaydi. Shu boisdan ham ta'lim jarayonini ham albatta bizga yordam bermog'i va barcha jabhalarida maktab, kollej va universitetlardan ham tushuntirish ishlarini olib borishimiz lozim. Chunki ko'plab jabrlanuvchilar aldov yo'li bilan ham jalb qilinib borilmoqdaki, bilim yetishmasligi jiddiy xavfdir.

Odam savdosi — bu insonni majburiy mehnatga, jinsiy ekspluatatsiyaga, majburiy nikohga, organlarini sotish yoki boshqa noqonuniy maqsadlarda foydalanish uchun aldov yoki zo'rlik ishlatish orqali jalb qilish, tashish, yashirish va sotishdir.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda minglab insonlar odam savdosining qurboni bo'lmoqda. Ularning aksariyati ayollar va voyaga yetmagan bolalardir. O'zbekiston tajribasi: O'zbekiston Respublikasida odam savdosiga qarshi kurash tizimli asosda yo'lga qo'yilgan.

2008-yil 17-aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun ushbu sohadagi asosiy huquqiy hujjat bo'lib, jinoyatning oldini olish, aniqlash, unga chek qo'yish va jabrlanuvchilarni himoya qilish choralarini belgilab berdi.

Bundan tashqari, 2020-yil 30-iyulda Prezident qarori bilan Odam savdosiga qarshi kurashish milliy komissiyasi faoliyati takomillashtirildi.

Mazkur komissiya davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda quyidagi yo'nalishlarda ish olib bormoqda:

1. Jinoyatni aniqlash va unga aloqador shaxslarni javobgarlikka tortish.
2. Jabrlangan shaxslarga ijtimoiy, psixologik va huquqiy yordam ko'rsatish.

³ Nasritdinov Azizxon Anvarovich "Jinoyat sababi va uni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarning nazariy-huquqiy tahlili", JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, Volume-67_Issue-5_December-2024 <https://scientific-jl.org/index.php/new>

3. Aholi o'rtasida profilaktika va ogohlik tadbirlarini o'tkazish.

4. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash.

Xalqaro hamkorlik tendensiyalari O'zbekiston BMTning "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi" va unga qo'shimcha "Odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish va unga chek qo'yish to'g'risida"gi Protokolga qo'shilgan.

Bu esa mamlakatimizning xalqaro majburiyatlarni bajarishga sodiqligini va jinoyatga qarshi kurashni global darajada davom ettirishga intilayotganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda odam savdosiga qarshi kurashning asosiy tendensiyasi quyidagicha ifodalanadi:

- profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish;
- aholining huquqiy savodxonligini oshirish;
- davlat va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish;
- raqamli texnologiyalar yordamida jinoyatni aniqlash va nazorat qilish tizimini joriy etish.

Bugungi globallashuv davrida odam savdosi insoniyat uchun eng xavfli jinoyatlardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu jinoyat nafaqat shaxs erkinligi va sha'niga, balki davlatning ijtimoiy barqarorligiga ham tahdid soladi. Odam savdosiga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish, aholi o'rtasida huquqiy ong va madaniyatni oshirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bu borada sezilarli natijalarga erishilmoqda. Xususan, "Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, maxsus idoralar faoliyatining yo'lga qo'yilishi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning mustahkamlanishi mamlakatimizning ushbu yo'nalishdagi qat'iy siyosatini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, odam savdosiga qarshi kurashning asosiy tendensiyasi — bu jinoyatni ildizidan yo'qotish, jabrlanuvchilarni himoya qilish va jamiyatda bu illatga nisbatan mutlaqo murosasiz munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son Farmoni. <http://www.lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning Oliy Majlisga va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasi <https://yuz.uz/news/>
4. “Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – 2008-yil 17-aprel.
5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Odam savdosiga qarshi kurashish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – 2020-yil 30-iyul.
7. BMTning “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi” va unga qo‘shimcha “Odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish va unga chek qo‘yish to‘g‘risida”gi Protokol. – Nyu-York, 2000.
8. Karimova N. “Odam savdosiga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning o‘rni” // Huquq va jamiyat jurnali, 2023.
9. Nasritdinov Azizxon Anvarovich “Jinoyat sababi va uni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarning nazariy-huquqiy tahlili”, JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, Volume–67_Issue-5_December-2024 <https://scientific-jl.org/index.php/new>
10. Ўзбекистон Республикаси Кодекслар тўплами. Расмий нашр. - Т.: Адолат, 2019. - Б. 960